



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024-yil 3-fevral

5/8-son

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan Jamoatchilik kengashining yangi tarkibini tasdiqlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi **Jamoatchilik kengashi** (keyingi o‘rinlarda – Kengash deb yuritiladi)ning yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Kengash (K.Tulyaganov) doimiy a‘zolari bilan birgalikda Kengash nizomini qayta ko‘rib chiqib, tasdiqlash uchun Rahbariyatga kiritсин.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 26-sentabrdagi 5/173-son buyrug‘ining 1-bandini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Devonxona (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni tarqatish ko‘rsatkichi asosida mas’ul ijrochilarga yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Ushbu buyruqning ijrosi nazorati vazir o‘rinbosari T.Alimatov zimmasiga yuklansin.

Vazir



Sh.Xidoyatov